



TARJIMONLIK VA SUN'IIY INTELLEKT YOXUD YANGI ASRDA DOLZARB MASALA

Fahrutdinova Nodirabegim Jasur qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi

2-kurs talabasi

ummumanzura@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili tarjima sohasining o'rnini, zamonaviy texnologiyalar, dasturlar bilan uzviy bog'liqligi yorqin misollar bilan keltirilgan. Shu bilan birga tarjimada keng qo'llanilayotgan dasturlar, ilovalar haqida yoritilgan, ularning tarjimadagi foydalari bayon etilgan. Bundan tashqari, elektron lug'atlar haqida ma'lumotlar keltirilib, asosli va tizimli ravishda tushuntirilgan. Hozirgi kunda tarjimon qanday talablarga javob berishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: til, metodika, resurs, dastur, lug'at.

Tarjimon – bu tillar va madaniyatlarni bog'lovchi mutaxassis. Bu kasb doimiy rivojlanish, ijodkorlik va texnik mahoratni talab qiladi. Agar siz turli tillar, madaniyatlar va insonlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashni istasangiz, tarjimonlik siz uchun eng mukammal kasb bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra tarjimon ma'lumotni tarjimada hech qanday xatoliqsiz to'g'ri

yetkazib berish uchun umummadaniy pragmatik bilimlaridan foydalanishi zarur hisoblanadi.

Bugun tarjima vositasida butun jahon xalqlari bilan madaniy muloqot o'rnatilmoqda. Endi tinimsiz izlanishlar, chuqur nazariy, tanqidiy tadqiqotlar olib borilishi kerak. Muhimi, badiiy ijod sohasi vakillari, ya'ni tarjimashunos-tadqiqotchilar qancha ko'paysa, soha

ham shunchalik taraqqiy etadi, original bilan bellasha oladigan tarjima asarlari bunyodga keladi.

Darhaqiqat, tarjima – azaldan til bilan bir qatorda mavjud bo'lib, adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda taraqqiy etgani bois bu sohalarni bir-biridan alohida ajratish mumkin emas.

Tarjimonlar tayyorlash jarayonida uzluksiz ta'lim tizimi hal qiluvchi o'rin tutadi. Zero, tarjima texnologiyalari, metodikasi, til resurslari, so'z boyligi, stilistik tafovutlar, terminologiya hamda madaniyatlararo tafakkur doimiy ravishda o'zgarib va boyib borayotgan bir davrda tarjimon o'z bilimini doimiy yangilab borishi kerak. Shu bois XXI asr tarjimoni uchun uzluksiz ta'lim nafaqat imkoniyat, balki zaruratdir.

XXI asr tarjimoni uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar



Bugungi kunda samarali faoliyat yurita oladigan tarjimon quyidagi muhim

kompetensiyalar majmuiga ega bo'lishi zarur:

- Til kompetensiyasi – manba va maqsad tilini mukammal bilish, nutq uslublari, grammatik

qurilishlar, idiomatik ifodalarni to'g'ri qo'llash.

- Madaniyatlararo kompetensiya – milliy mentalitet, tarix, madaniyat, e'tiqod va ijtimoiy

kontekstni chuqur anglash.

- Texnologik savodxonlik – CAT (Computer-Assisted Translation) vositalarini bilish, onlayn

lug'atlar, tarjima dasturlari, korpuslar bilan ishlash.

- Tahliliy va tanqidiy fikrlash – matnlarni tahlil qilish, noaniq joylarni aniqlash, muallif niyatini tushunish va to'g'ri aks ettirish.

XXI asr texnologiyalarning cho'qqiga yetgan davri hisoblanib, internet hozirda bizga juda ko'p jihatdan yordam bera olish, ishimizni yengillashtirish va ba'zan zarar ham keltirish imkoniga ega. Hozirda ko'pchilik sun'iy intellektdan tarjima vositasi sifatida foydalanayotgan bo'lsada uning tarjimasida inson tarjimon ko'rsatadigan natijadan farq qilib turadigan jihati yaqqol namoyon bo'ladi, va bu ba'zan ham ijobiy ham salbiy tomonlari bilan ajralib turadi. Eng asosiy ijobiy xususiyati shundan iboratki, sun'iy intellekt bir necha soniyalar ichida bir boshli uzun matnni tahlil va tarjima qilish imkoniga ega. Ammo madaniyatga aloqador so'zlar, polisemantik (ko'p ma'noli) so'zlar, ibora va tasviriylar ifodalarni tarjima qilishda ularda xatoliklar kuzatilib, matnning noaniq bo'lishiga olib kelishi aniq. Arab va o'zbek tillari ortasidagi tarjimini olsak, ular o'rtasida uzviy bog'liqlik va o'xshashlik kuzatilsada, ikki madaniyat orasida bir nechta mavjud bo'lgan-bo'lmagan so'zlar juda ko'p. Masalan turli ovqatlar, bayramlar, kundalik narsalar. sifatini nazorat qilish imkoniyatlari kabi muhim jihatlar.

Har bir narsaning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lganidek, tarjima sohasida sun'iy intellekt (SI) va mashina o'qitish texnologiyalari tarjima jarayonlarini sifatli va samarali qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, neyron mashina tarjimasini (NMT) tizimlari statistik mashina tarjimasini (SMT) modellari bilan taqqoslaganda yuqori darajada tabiiylik va aniqlikni ta'minlaydi.

Su'niy intellektga asoslangan lingvistik dasturlardni misol tariqasida keltiramiz:

Microsoft Translator-dasturiy ta'minoti endilikda real vaqt rejimida ishlaydi. Uning mobil versiyasida foydalanuvchining so'zlarini avtomatik tarzda bir yoki bir necha suhbatdosh tiliga tarjima qilish imkonini beruvchi



muloqot funksiyasi paydo bo'ldi. Muloqotga kirishish uchun smartfonda maxsus kodni kiritish yoki QR-kodni skanerlash kerak bo'ladi. Bundan tashqari, servisning internet-sahifasi orqali xorijliklar bilan muloqot qilish mumkin.

DeepL (ingliz tilidan olingan bo'lib, chuqur o'rganish degan manoni bildiradi) -bu mashina tarjimasiga asoslangan onlayn tarjimon hisoblanadi. 2017-yil avgust oyida Kyolndan DeepL GmbH tomonidan ishga tushirilgan. Xizmat 31 tilga asoslangan 700 dan ortiq til juftliklariga tarjima qilish imkonini beradi.

MemoQ-bu tarjima muhiti bo'lib, u tarjimonlarga, tarjima kompaniyalariga hamda tarjima bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilotlarga yordam beradi. Bunga notijorat tashkilotlar yoki turli kompaniyalarning tarjima bo'limlari ham kiradi.

Sun'iy intellektdan tashqari, zamonaviy elektron lug'atlar ham tarjimada keng qo'llaniladi. Ular alohida dastur sifatida ham, tarjimon dasturlariga ham avtomatik kiritilgan bo'ladi.

Elektron lug'atlarda kitob shaklidagi lug'atlarning barchasi afzalligini qamrab olishi bilan bir qatorda, farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: har bir so'zlik mos ravishda muayyan harfning massivida bo'ladi, qolaversa, har bir so'zlik gipperilovalarda taqdim qilinadi. Elektron lug'atlardan foydalanish dasturiy ta'minot sifatida (offline dictionary) hamda Internet tizimida (online dictionary) avtomatik qidiruv tarzida foydalaniladi, ularning har biri foydalanuvchining kuchini tejaydi. Shuningdek, "qog'ozli" lug'atlardan elektron lug'atlar shunisi bilan farq qiladiki, ular multimediali va gippermatnli ham bo'lishi mumkin. Bunday gipperilovalar lug'atdagi istalgan maqolalarning elementi va lug'atning dasturiy menyusiga biriktirilgan bo'ladi. Bu esa foydalanuvchiga lug'atga oid kerakli ma'lumotlarni tezkorlik bilan qidirish imkoniyatini, bundan tashqari so'zga ulangan sinonim, antonim, semantik guruhlar, turlanish va tuslanishga oid

bo'lgan grammatik paradigmalar haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi.

Bunday elektron lug'atlarga: "Al-Javohir", "Mu'jamul-ma'na", "Arabus" kabi ilovalarni, dasturlar bo'yicha esa "Reverso Context", "Glosbe Dictionary" misol bo'la oladi.

Lekin, aynan arab tili tarjimonligida, mumtoz kitoblar, tomli lug'atlar, grammatik asarlar va she'rlar muhim o'rin tutadi. Chunki arab tilida bir so'zning ko'plab ma'nolarda qo'llanilishi, she'rlardagi tub ma'nosini ochib berish va gapning jonliligini yetkazib berish faqatgina inson omili orqali mukammalroq bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsa, sun'iy intellektdan unumli foydalangan holda tarjimonlik sohasini rivojlantirish, vaqtni tejash va malakali, o'z



sohasining mutaxxasisi bo'lgan kadrlarni tayorlash mumkin. Shu bilan birga, arab tili bo'yicha yozilgan grammatik, leksik asarlarni puxta o'rganib, ularni hayotga tadbiq etib, bizga meros bo'lib qolgan boy tariximizni kelajak avlodga ham yetkazish g'oyasini-oliy maqsad sifatida qo'yish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yosh tarjimashunos, V. "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik" yillik an'anaviy ilmiy-
1. amaliy anjumani materiallari. – T., 2020. – 144 b.;
2. "Uzliksiz ta'lim tizimida xxi asr shaxsining kasbiy shakllanishi: xalqaro tajriba, amaliyot va innovatsion yondashuvlar – tarjimonlar tayyorlashdagi roli", Turobiddinova M.A.; 14-17 2025;
2. "Tarjima pragmatikasining o'ziga xos xususiyatlari", Xudoyberdiyeva O'. K., T., 2014, 68 b.;
3. Kun.uz;
4. "Til texnologiyasi", o'quv-uslubiy qo'llanma, N.Z. Abduraxmonova, Toshkent, 2020 y.